

**BANKLARARO RAQOBATNING PAYDO BO'LISH TARIXI VA NAZARIY
YONDASHUVLAR**

Jumayeva Z.Q.

Ilmiy rahbar: dots.

Nurmatova F.Sh.

Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15099533>

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklararo raqobatning paydo bo'lish tarixi, uning evolyusiyasi va nazariy yondashuvlari tahlil qilingan. Bank tizimida raqobatning rivojlanishi, bank xizmatlari sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'satishi ta'kidlangan.

Kalit sozlar: bank, banklararo raqobat, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy xizmatlar.

Banklararo raqobatning paydo bo'lishi va evolyusiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, banklararo raqobat muhitining takomillashib borishi jarayonida bank xizmati turlari sonining va mavjud xizmatlar sifatining oshib borganligining guvoni bulamiz.

Chunonchi, ko'pchilik mutaxassislarning fikriga ko'ra, tijorat banklari tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi tufayli emas, balki pul muomalasini tartibga solish va kredit operatsiyalarini rivojlantirishning zarurligi munosabati bilan paydo bo'lgan.

Dastlabki banklar kapitalizmning manufaktura bosqichida bank uylari shaklida paydo bo'ldi va ular sudxo'rlardan farqli ravishda, sanoat va savdo kapitalistlariga nisbatan past foizlarda kredit bera boshladilar¹. Dastlabki bankirlar, banklardagi harakatsiz turgan yirik mablaglarni xo'jalik sub'ektlariga vaqtinchalik foydalanishga berish yo'li bilan katta miqdorda daromad olish mumkinligini tushunib yetdilar.

Natijada tijorat banklarida kredit operatsiyalari yuzaga keldi. Kredit operatsiyalarining rivojlanishi, o'z navbatida, banklar depozit operatsiyasining rivojlanishiga olib keldi. Banklararo raqobat rivojlanmagan dastlabki paytlarda tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning faqat bitta shakli mavjud bo'lib, u ham bo'lsa, mijozni bir marotabalik kreditlash shakli edi. Astasekin banklararo raqobat kuchayib, mijozlarda ular uchun qulay shakllarda kredit olish istagi paydo buldi.

¹ Трахтенберг И.А. Современный кредит и его организация. Москва, 1931. —С.191.

Va nihoyat, tijorat bank ishi rivojlanishining hozirgi zamonaviy bosqichida har biri mijoz uchun o'ziga xos qulayliklarga ega bo'lgan bir nechta kreditlash shakli yuzaga keldi. Bank faoliyatida raqobatni rivojlanishi yuqori darajadagi ko'rsatkich hisoblandi. Banklararo raqobat juda ko'p omillarga bogliq bo'lib, boshda bozorlardagi raqobatni shakllantirishdan tubdan farq qiladi hamda ehtiyotkorlik bilan munosabada bulishni talab qiladi.

Banklararo raqobat haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi bank tizimida raqobatning rolini va ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Asli Demircug-Kunt va Harry Huizinga (2004) o'zlarining "Bozor intizomi va depozitlarni sug'urtalash" nomli maqolalarida banklararo raqobatni tadqiq qilishadi. Bu ishda ular ikki omil – davlat tomonidan omonatlarni sug'urtalash tizimi va banklararo raqobatning o'zaro ta'sirini tahlil qilishgan. Ular banklararo raqobat bozor intizomini oshirishi va bank tizimi risklarini kamaytirishi mumkin degan xulosaga kelishadi. Banklar o'rtasidagi yuqori darajadagi raqobat resurslarni yanada ehtiyotkorlik bilan boshqarishga va ishonchli bank amaliyotlari o'tkazishga undaydi, chunki banklar mijozlar ishonchi va o'z biznesining barqarorligi uchun raqobatlashishi kerak² deb ta'kidlashadi.

Xavier Vives (2016) "banklararo raqobat bank tizimining samaradorligiga hissa qo'shishini va monopollashish darajasini pasaytirishi, innovatsiyalar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishini ta'kidlaydi³.

Bu ikkala yondashuv ham banklararo raqobat, moliyaviy barqarorlik va bank tizimining samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Ularda bank sohasida raqobatning ahamiyati va uning bank tizimining samaradorligi hamda barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Xavier Vives (2016) shuningdek, bozor konsentratsiyasi va uning banklararo raqobat va barqarorlikka ta'siri bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. U raqobatning bozor tuzilishi va bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan turli mexanizmlarni muhokama qiladi. U raqobat va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun samarali tartibga solish zarurligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi.

Fikrimizcha, Xavier Vivesning (2016) raqobat va barqarorlik o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratishi bank sektorida samarali boshqaruv siyosatini shakllantirish va nazorat qilishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi bilan izohlanadi.

² Asli Demircug-Kunt and Harry Huizinga. (2004) Market discipline and deposit insurance. Journal of Monetary Economics, vol. 51, issue 2, 375-399

³ Xavier Vives. (2016) Competition and Stability in Banking: The Role of Regulation and Competition Policy. Published by: Princeton University Press. Pages: 344.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Mirzaev (2009) "banklararo raqobat deb, odatda, tijorat banklari o'rtasida resurslar jalb qilish va mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish borasida yuzaga keladigan raqobat tushuniladi"⁴ deb izohlaydi.

Arifxodjaevaning (2016) fikriga ko'ra, "banklararo raqobat avvalambor mijoz uchun kurashdan iborat bo'ladi. Qaysi bankning mijozlari ko'p va obro'li bo'lsa o'sha bankning o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yuqoridir"⁵.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida raqobat nafaqat mijozlarni ko'proq jalb qilish, balki resurslar, kreditlar va boshqa moliyaviy mablag'larga bo'lgan kurash sharoitida ham yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Mahalliy olimlardan Qurbonov o'zing ilmiy tadqiqotlarida bank tizimining barqarorligini ta'minlashda bank kapitallashuv darajasini oshirishning zamonaviy yo'llariga alohida e'tibor qaratgan⁶ (Kurbanov, 2022; Kurbanov, Asirarov, 2022; Kurbonov, 2021).

Yana bir iqtisodchi olim Yuldasheva (2022) "Bank raqobati – moliya bozorining ishtirokchilari, xususan, kredit tashkilotlari o'rtasidagi kreditlar, depozitlar va boshqa bank mahsulotlarini sotish uchun kurash sifatida qaralishi, hamda doimiy tadqiqotlar o'tkazib borilishi kerak bo'lgan jarayon sifatida baholanishi lozim"⁷ deya ta'kidlagan.

Xorijlik ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra "banklararo raqobat banklarning riskli faoliyatini kuchaytirishi mumkin, chunki banklar o'z mijozlariga qulay shartlar taklif qilish orqali ko'proq mijozlarni jalb qilishga intiladi, bu esa ularning riskli aktivlarini oshirishi mumkin. Boshqa tomondan, raqobat banklarni yanada samarali ishlashga va innovatsion yondoshuvlarni joriy etishga undaydi, bu esa ularning barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi"⁸ (Klapper, Leora & other, 2009).

Yana bir boshqa xorijlik olimlar "Bozor raqobati kuchayganda, banklar mijozlarni jalb qilish uchun kredit foiz stavkalarini pasaytirishga va depozit stavkalarini oshirishga majbur bo'lishi mumkin, bu esa ularning daromad marjasini pasaytiradi va moliyaviy mustahkamligiga ta'sir qilishi mumkin"⁹ (Christian, Kersting & other, 2020)" deb ta'kidlashadi.

⁴ Mirzaev F.I. (2009) O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari. Iqtisod fanlari doktori... diss. avtoreferati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, – 41 b

⁵ Arifxodjaeva M.I. (2016) O'zbekiston Respublikasi bank tizimida raqobat va uni rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr

⁶ Kurbanov, R. B., & Asirarov, R. Z. (2022). The role of the bank's initial public offering in increasing the capitalization of commercial banks. *Asian Journal of Research in Banking and Finance*, 12(4), 30-36.

⁷ Yuldasheva S.Sh. (2022) O'zbekistonda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishning shart-sharoitlari. Iqtisodiyot va ta'lim / 5-son.

⁸ Klapper, Leora & Ariss, Rima & Berger, Allen. (2009). Bank Competition and Financial Stability. *Journal of Financial Services Research*. 35. 99-118. 10.1007/s10693-008-0050-7.

⁹ Christian König gen. Kersting & Stefan Trautmann & Razvan Vlahu, (2020). "Bank instability: Interbank linkages and the role of disclosure," Working Papers 665, DNB.

Umuman olganda, banklararo raqobat sharoitda tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning zarurligi shundaki, banklar raqobatga kirishish natijasida o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilishi, bank xizmatlari bozoridagi roli va ulushini yanada oshirish uchun strategiyalar ishlab chiqishi, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda innovatsion yondoshuvlarni yanada kuchaytirish imkoniyatlarini oshirishlari mumkin bo'ladi¹⁰ (Jurayev, 2021).

Banklararo raqobatning rivojlanishi banklar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir etib qolmasdan, balki bevosita iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'z navbatida, banklararo raqobat muhiti rivojlanishi jarayonida, bank tizimi mahsulotlari xilma-xillik darajasining ortib borishi xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini oshirib, real sektorda tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga va raqobatbardosh mahsulotlar ulushi ortishiga olib keladi.

Banklararo raqobat ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya bo'lib, boshqa bozorlardagi raqobat muhiti shakllanishidan tubdan farq qiladi. Fikrimizcha, banklararo raqobat xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- banklararo raqobat, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi raqobatga nisbatan kech vujudga kelgan bo'lsada, barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda;
- banklararo raqobat bozorida banklar bilan birgalikda bankdan tashqari moliya-kredit institutlari ishtirok etadi;
- banklararo raqobat bozorida banklar bir holatda sotuvchi, ikkinchi holatda esa, xaridor sifatida ishtirok etadi, respublikamiz banklari raqobat bozorida hozirgi kunda faqat kredit resurslarini sotib oluvchi sifatida ishtirok etmoqda;
- bank ishining har bir yo'nalishi o'zining alohida xususiyatiga ega bo'lib, intensiv raqobatni tashkil etish imkonini beradi;
- baholi raqobatni chegaralash, bu birinchi navbatda, bank xizmatini boshqarish sifatini oshirish va reklamani tashkil etishda muammo keltirib chiqaradi;
- bank xizmatlari bozori oligopol tabaqalashgan bozor bo'lib, korporatsiya va kredit institutlarining bozor siyosatini olib borish imkoniyatini oshiradi.

Ayrim davlatlarda (misol uchun Germaniyada) individual raqobat guruhida o'zining o'rnini bo'ladi, ya'ni guruhlar orqali o'tkaziladigan raqobat, guruh ichida ham raqobatning shakllanishi

¹⁰ Jurayev PhD, I. (2021). Urgent Issues To Increase The Sustainability Of The Banking System Of The Republic Of Uzbekistan. *International Finance and Accounting*, 2021(6), 12.

imkonini beradi. Zamonaviy banklararo raqobatni shakllantirish bosqichlari quyidagilarni o`ziga mujassamlashtiradi:

- ✓ Bank faoliyatini universallashtirish;
- ✓ Davlat tomonidan bank faoliyatini boshqarishni liberallashtirish;
- ✓ kredit institutlari faoliyatini kengaytirish;
- ✓ banklararo bozorda bankdan tashkari institutlarni jalb etish;
- ✓ bahosiz raqobatning qiymatini oshirish;
- ✓ banklararo raqobatni globallashtirish;
- ✓ banklararo raqobatni intensiv kuchaytirishning huquqiy asoslarini rivojlantirish.

Bundan kelib chiqadiki, banklararo raqobat — bu tijorat banklari o`rtasidagi raqiblilikni va bankdan tashqari kredit-moliya institutlarning bank xizmatlar bozorida faoliyatini olib borishni anglatadi. Zamonaviy tijorat banklari faoliyatining doirasi barcha bozor bulimlarini qamrab oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, banklararo raqobat deb, bank xizmatlari bozorida resurslarni jalb etish, mablag`larni joylashtirish va boshqa barcha bank xizmat turlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

REFERENCES

1. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.
2. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. *Miasto Przyszłości*, 54, 697-702.
3. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
4. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.
5. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). О 'ZBEKISTONDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH. *ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА*, 1 (5), 152-159.
6. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В

- ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM
AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 323-330.
7. Jumayeva, Z. Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA
SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O 'SISHIGA TA'SIRI. *ANALYSIS OF
MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 205-212.
8. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ
ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. *Инновационное развитие* , (4), 64-66.
9. Qudratova, G. M. (2025). INNOVASION MARKAZLAR: RIVOJLANISHI,
TAQQOSLAMA TAHLIL VA KELAJAKDAGI TENDENSIYALAR. *ANALYSIS OF
MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(7), 98-104.
10. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC
SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
11. Bahodirovich, X. B. (2025). XO'JALIK MUOMALALARI TA'SIRIDA BALANSDA
SODIR BO'LADIGAN O'ZGARISHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION*, 1(6), 356-361.
12. Бахтиёрлов, Д., & Алимова, Ш. А. (2025). КОНКУРЕНЦИЯ НА РЫНКЕ: КАК БОРЬБА
КОМПАНИЙ ВЛИЯЕТ НА ЦЕНЫ, КАЧЕСТВО И ИННОВАЦИИ. *Modern Science
and Research*, 4(2), 463-471.
13. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI
YO'LGA QO'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN
SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 193-205.
14. Azimov, B., & Hamidov, A. (2025). THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF
MANAGING ORGANIZATIONAL COSTS IN THE ECONOMIC SECURITY
SYSTEM. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 356-363.
15. IKROMOV, E. (2025). THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN AND ITS
FEATURES. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 240-246.
16. Raxmonqulova, N. O. (2025). SAMARALI RAHBARNING XUSUSIYATLARI,
LIDERLIK USULLARI VA ULARNING TASHKILOT MUVAFFAQIYATIGA
TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 29-35.
17. Shadiyev, A. X. (2025). MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *STUDYING THE PROGRESS
OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 145-150.

18. Supiyevna, B. M. (2025). XUSUSIY TADBIRKORLIKDA MEHNAT MOTIVATSIYASINI OSHIRISH YO‘LLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 126-132.
19. Naimova, N. (2025). CLASSIFICATION OF INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES EXISTING APPROACHES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 683-688.
20. Jumayeva, Z. (2025). A NEW THEORY OF ECONOMIC GROWTH: AN EVOLUTIONARY APPROACH. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 869-873.
21. Bobojonova, M. (2025). PRICE LEVELS IN THE GREEN ECONOMY AND THEIR APPLICATION. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(1), 109-117.
22. Jumayeva, Z. (2025). THE ROLE OF TRADE POLICY IN ENSURING THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY: MODERN APPROACHES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 483-488.
23. Ibragimov, A. (2025). PROSPECTIVE WAYS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 137-143.
24. Djurayeva, M. S. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 153-159.
25. Bahodirovich, X. B. (2025). BUXGALTERIYADA QIMMATLI QOG‘OZLAR HISOBI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 407-411.
26. Raximova, L. (2025). THE IMPACT OF THE SHADOW ECONOMY ON THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 585-590.
27. Igamova, S. (2025). THE UZBEK ECONOMIC MODEL. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 857-868.
28. Xasanova, G., & Qurbonova, X. (2020). WAYS TO PROMOTE INTEGRATED COLLABORATION OF HIGHER EDUCATION AND VOCATIONAL COLLEGES IN ECONOMIC MODERNIZATION. *Интернаука*, (7-1), 66-69.
29. Soliq huquqi. –T. TDYU, 2017. 283 b.